Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan loyihalar uchun nodavlat notijorat tashkilotlaridan takliflar qabul qilish bo‘yicha

TANLOV SHARTLARI

Diqqat! Tanlov shartlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-fevraldagi 135-son qarori asosida tasdiqlangan **“Sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun davlat organlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi berish tartibi to‘g‘risida”**gi Nizomga asosan ishlab chiqilgan.

Nodavlat notijorat tashkilotlari (siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va diniy tashkilotlar bundan mustasno) **quyidagi tanlov mavzularida** tashabbusli loyihani amalga oshirish uchun davlat ijtimoiy buyurtmasini olish to‘g‘risida *ilova*ga muvofiq shakldagi loyiha takliflari qabul qilinadi.

“Yangi O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish islohotlari: tarixga nazar” nomli nashrni tayyorlash va chop etish

- So‘nggi yillarda O‘zbekistonda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan eng muhim huquqiy, institutsional, ma’muriy va raqamli islohotlarni aniqlash, o‘rganish va tizimlashtirish;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Hukumat qarorlari, davlat dasturlari va boshqa rasmiy hujjatlarni o‘rganish, ularning mazmun-mohiyati va ahamiyatini sodda va tushunarli shaklda yoritish;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi islohotlar va ularning natijalarini yoritishda rasmiy statistika, milliy ma’ruzalar, ochiq ma’lumotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va nufuzli ilmiy-tahliliy tadqiqotlardan foydalanish;
- Islohotlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida ishtirok etgan davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, ekspertlar va mutaxassislar bilan intervyu va suhbatlar tashkil etish;
- Kitob mazmunini ilmiy, huquqiy va faktologik ekspertizadan o‘tkazish, unda keltirilgan ma’lumotlar, sanalar, normativ-huquqiy hujjatlar va statistik ko‘rsatkichlarning aniqligi va ishonchliligini tekshirish;
- Kitobni zamonaviy dizayn asosida tayyorlash, uni infografika, fotosuratlar, xronologiyalar, jadvallar va boshqa vizual materiallar bilan boyitish;
- Kitobni adabiy va texnik tahrirdan o‘tkazish, sahifalash va bosmaga tayyorlash;

- Nashrni yuqori poligrafik sifatda 200 nusxada chop etish hamda uni manfaatdor davlat organlari, ta’lim va ilmiy muassasalar, kutubxonalar, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa maqsadli auditoriya vakillariga tarqatish.

Loyiha taklifiga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi talab etiladi:

1. davlat ijtimoiy buyurtmasining zarurati va uni bajarishning batafsil tasnifi*;*

2. davlat ro‘yxatidan o‘tganlik haqidagi guvohnoma nusxasi;

3. nodavlat notijorat tashkiloti ustavi (nizomi)ning nusxasi;

4. qarzdorlik mavjud emasligi haqida davlat soliq inspeksiyasi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotnoma;

5. maxsus ruxsatnoma (litsenziya) nusxasi, agar davlat ijtimoiy buyurtmasi doirasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab etilsa.

Nodavlat notijorat tashkilotining tashabbusi bilan boshqa hujjatlar (sertifikatlar, o‘tkazilgan tekshirishlar bo‘yicha ma’lumotlar va boshqalar) ham taqdim qilinishi mumkin.

Loyihalarni ko‘rib chiqish tartibi:

Agentlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi kiritilgan loyiha taklifini **o‘n ish kuni ichida** quyidagi mezonlar asosida ko‘rib chiqadi va baholaydi:

- davlat ijtimoiy buyurtmasini olish to‘g‘risidagi loyiha taklifining davlat organi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi;
- tegishli soha va tarmoqlardagi mavjud muammolarning dolzarbligi va aniq yoritilganligi;
- muammolarning ta’sirchan yechimi bo‘yicha takliflarning ilmiy asoslanganligi, samaradorligi va noyobligi;
- loyiha taklifini amalga oshirish xarajatining asoslantirilganligi;
- nodavlat notijorat tashkilotining taqdim qilgan loyiha taklifini amalga oshirish qobiliyati.

Loyiha taklifi jamoatchilik kengashi tomonidan har bir mezon bo‘yicha **“1” balldan “5” ballgacha** baholanadi.

To‘plangan ballar jami ballning **81 foizidan yuqori**sini tashkil etsa, taklif ijobiy baholangan deb topiladi.

Loyiha taklifi jamoatchilik kengashi tomonidan ilovadagi har bir mezon bo‘yicha ijobiy baholangan taqdirda, **bir ish kuni ichida** uning tashabbuskoriga Agentlikning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining

ming baravarigacha miqdorda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish orqali ijtimoiy buyurtma berilishi to‘g‘risida jamoatchilik kengashining qarori qabul qilinadi.